

**BEMORLAR O`RTASIDA QANDSIZ DIABET KASALLIGINI KELTIRIB  
CHIQUARUVCHI OMILLAR HOLATI**

**Odilov Javohir**

*SamDTU davolash fakulteti 414 – guruhi*

**Xolmirzoyev Mardon**

*SamDTU davolash fakulteti 414 – guruh*

**Abduhalimov Shahzod**

*SamDTU davolash fakulteti 414 – guruh*

**Aminov Jamshid**

*SamDTU davolash fakulteti 414 – guruh*

**Barnoyev Shahzod**

*SamDTU Endokrinologiya kafedrasi*

**Negmatova G.Sh**

*( Kafedra mudiri mudiri. )*

**Tog'ayeva G.S**

*( Ilmiy rahbar : )*

**Mavzuni dolzarbligi** – Qandsiz siydik tanqisligi — **vazopressin** (antidiuretik gormon) yetishmovchiligi tufayli kuchli chanqoqlik va buyraklarni ko'p miqdorda past konsentratsiyali siydik ajratishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Bu noyob kasallik ayollar, erkaklar va bolalar orasida teng ravishda kuzatiladi. Biroq 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar ko'proq kasallanishga moyildir. Qandsiz diabet neyroendokrin kasallik; asosan, gipotalamus va gipofiz funksiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Kasallik 17-asrda aniqlangan, ammo, qandli diabetdan farqlay olmaganliklari sababli, unga alohida dard sifatida qarashmagan. Qandsiz diabet birinchi bo'lib ingliz olimi Tomas Uillis tomonidan aniqlandi (1674-yil). U Qandsiz diabetga chalingan bemorlar siydigini tekshirib, qandli diabetdan farqli ravishda ularning siydigi tarkibida qand moddasini topmagan va bu kasallikni qandsiz diabet deb atagan. Kasallik, asosan, yosh erkak va ayollarda, qisman bolalarda ham kuzatiladi. Qandsiz diabetga xos alomatlar to'satdan boshlanadi, bemor ko'p siyadi (poliuriya), juda chanqaydi va ko'p suyaklik ichadi (polidipsiya), og'zi quriydi. Kasallikning bu belgilari tez orada zo'rayadi, bemor bezovtalanadi, asabiylashadi. Haddan ziyod ko'p suv ichish me'da devorining cho'zilib, hajmi kattalashishiga va me'daning pastga tushishiga olib keladi, bu me'da atrofidagi a'zolar faoliyatiga ham ta'sir qiladi. Ayollarda hayz ko'rishning buzilishiga, erkaklarda jinsiy maylning susayishiga, bolalarda esa o'sish va rivojlanishdan orqada qolish, jinsiy va jismoniy rivojlanishning kechikishi kabi holatlarga olib keladi. Kasallik uzoq davom etadi, ko'pincha uning rivojlanishi bosh miya jarohati va undagi jarrohlik amaliyotlaridan so'ng, bakterial meningit, virusli ensefalit, zaxm, bosh miya o'smalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kasallikka

bemorning shikoyatlari, siydik tahlili, nevrologik, oftalmologik, rentgenologik va gipofizning kompyuter va magnitrezonansli tomografiya natijalariga asoslangan holda diagnoz qo'yiladi. Odsini olish uchun kasallikning birinchi belgilari boshlanishi bilan endokrinologga murojaat etish va uning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish lozim. Kasallik o'z vaqtida davolansa, bemor butunlay sogayib ketishi mumkin.

**Maqsad :** Bemorlar o'rtasida qandsiz diabet kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar holati aniqlash.

**Material va Metodlar:** sabab gipotalamo-gipofizar tizimdagi o'smalar, neyroxirurgik aralashuvlar, qon tomirlar bilan bog'liq muammolar, sil, malyariya, sifilis (zahm) sababli zararlanishi bo'lishi mumkin. Idiopatik qandsiz diabetda gipotalamo-gipofizar tizimda organik o'zgarishlar kuzatilmaydi, gormon sintez qiluvchi hujayralarga qarshi antitelolar ishlab chiqariladi va ular ushbu hujayralarni nobud qiladi. Qandsiz diabetning buyrak bilan bog'liq turi rivojlanish sabablariga tug'ma yoki orttirilgan buyrak kasalliklari (buyrak yetishmovchiligi, amiloidozi, giperkalsiyemiya) yoki litiy preparatlari bilan zaharlanish kabi omillar kiradi. Qandsiz diabetning tug'ma ko'rinishi ko'pincha autosom-retsessiv gen orqali o'tuvchi Volfram sindromi sabab bo'ladi, bunda qandsiz diabet bilan bir qatorda, qandli diabet, ko'ruv nervi atrofiyasi, karlik ham rivojlanishi mumkin.

**Olingan natijalari :** 2021-yilda olingan ma'lumotlarga ko'ra qandsiz diabet bilan kasallangan bemorlar Samarqand viloyatida. 303 nafar bemor kuzatilgan bo'lib bundan ayollarda 168 nafar, yoshga nisbatan 6-14 yoshgacha 29 nafarda kuzatildi shulardan 16 nafari, qizlar. 15-17 yoshgacha bo'lgan bemorlarda 4 nafar kuzatildi. 234 nafar 18-29 yoshlarda, 5 nafari esa 30-59 yoshlarda aniqlandi.

**Xulosa:** Shunday qilib bemorlarni kuzatish davomida olingan natijalarga asoslanib qandsiz diabet kasalligini keltirib chiqaruvchi eng asosiy omil infeksiyon virusli kasalliklar yuqumli kasalliklar, ayniqsa virusli tabiat, bosh suyagi shikastlanishi, miya shishi, miya o'smalari (kraniofaringioma, meningioma), bronxogen o'sma, ko'krak o'smalarni gipotalamik soxa metastazlari, irsiy moyillik og'ir travmalardan keyin olingan jarohlardan keyin aniqlandi. Tajribamiz shuni ko'rsatadiki, aholi salomatligini saqlashda va qandsiz diabet kasalligini oldini olishda aholi orasida sog'lom turmush tarziga e'tibor berish, mavsumiy virusli infeksiyon kasalliklarga chalinmaslik chora tadbirlariga rioya qilishni tadbir etish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shagzatova B.X Toshkent 2021
2. Najmiddinova endokrinologiya qo'llanma
3. Исмаилов С.И. Клиническое руководство
4. по Эндокринологии Ташкент 2018